ADABIYOTSHUNOSLIK

UO‘K 821.153.09-93 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a97**

K.LYUISNING “NARNIYA YILNOMALARI”DA BOLALAR FENTEZI AN’ANALARI

ТРАДИЦИИ ДЕТСКОГО ФЭНТЕЗИ В “ХРОНИКАХ НАРНИИ” К.ЛЮИСА

TRADITIONS OF CHILDREN’S FANTASY IN “THE CHRONICLES OF NARNIA” BY C. LEWIS

Saidova Nozima Axrorovna[1]

[1]**Saidova Nozima Axrorovna** – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Bolalar fentezisi fentezi va bolalar adabiyoti janrlarining qorishmasidan iborat bo‘lib, o‘zining bir qator janriy xususiyatlariga ega. K.Lyuisning “Narniya yilnomalari” asarida qiyoslash va funksional ta’riflash metodlaridan foydalangan holda, bolalar fentezi adabiyotining janriy xususiyatlari tahlil qilinib, asardan keltirilgan misollar yordamida izohlab berildi. Asar bosh qahramonlarining asosiy qismini bolalar tashkil etgani, asarning tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, uning syujeti yaxshilik va yovuzlik orasidagi kurashdan iboratligi kabi xususiyatlar uni bolalar fentezi janriga tegishli ekanligining dalilidir.

Аннотация

Детское фэнтези представляет собой смесь жанров фэнтези и детской литературы и имеет ряд собственных жанровых особенностей. С помощью методов сравнения и функционального описания проанализированы жанровые особенности детской фэнтези в произведении «Хроники Нарнии» К. Льюиса и истолкованы примерами приведённые из произведения. Тот факт, что главными героями произведения являются дети, дидактическая функция произведения, а также то, что его сюжет состоит из борьбы добра и зла, являются доказательством того, что он принадлежит к жанру детской фэнтези.

Abstract

Children's fantasy is a mixture of fantasy and children's literature genres, and has a number of genre features of its own. Using the methods of comparison and functional description, the genre features of children's fantasy literature were analyzed in K. Lewis's “The Chronicles of Narnia” and explained providing examples from the work. The fact that the main characters of the work are children, the educational value of the work, and the fact that its plot consists of the struggle between good and evil are proof that it belongs to the genre of children's fantasy.

Kalit so‘zlar: *bolalar fentezisi, janriy xususiyat, didaktik funksiya, ikkilamchi olam, syujet zanjiri, folklor, obraz, motiv.*

Ключевые слова: *детское фэнтези, жанровый признак, дидактическая функция, вторичный мир, сюжетная цепочка, фольклор, образ, мотив.*

Key words: *children's fantasy, genre feature, didactic function, secondary world, plot chain, folklore, image, motive.*

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda bolalar uchun yozilgan kitoblarning asosiy qismining bolalar fentezi asarlari tashkil etadi. XX asr fentezi asriga aylandi va ushbu janr o‘zining haqiqiy ravnaqini topdi. Bolalar fentezi janrining o‘ziga xos xususiyatlarining yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagani, ushbu tushunchaning aniq janriy chegaralarining yo‘qligi, ushbu voqelik atrofidagi ko‘plab bahs-munozaralar hanuzgacha to‘xtamaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada bolalar fentezisining janriy xususiyatlari aniqlanib, K.Lyuisning “Narniya yilnomalari” asarida tahlil etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Klayv Steplz Lyuis (1898-1963) - 60dan ortiq asarlar muallifi bo‘lib, o‘zining nafaqat diniy qarashlari bilan teolog sifatida, balki o‘ziga xos ikkilamchi olam yaratgan adabiyotshunos sifatida ham butun dunyoga tanilgan [1, 245].

Lyuis 40ga yaqin kitoblar yozgan, ular dunyoning 30dan ortiq tillariga tarjima qilingan va millionlab nusxalarda sotilgan. U “Narniya yilnomalari” kitobining muallifi sifatida tanilgan bo‘lsa-da, “Suhbatchi maktublar”(“The Screwtape Letters”, 1942) va “Koinot trilogiyasi”(“The Space Trilogy”, 1945) kabi fantastik asarlari, shuningdek, xristianlik apologetikasi, jumladan “Xristianlik”(“Mere Christianity”, 1952), “Mo‘jizalar”(“ Miracles”, 1947) va “Og‘riq muammosi”(“ The Problem of Pain”,

1940) kabi ilmiy asarlari bilan ham ancha nom qozongan. Uning dastlabki muvaffaqiyat keltirgan fentezi asari “Sokin sayyoradan tashqarida” (“Out of the Silent Planet”, 1938) romani bo‘lib, unda Lyuis nasroniy iboralari va mavzularini ochib bergan. Lyuis “Uzuklar hukmdori” romani muallifi J.R.R.Tolkinning yaqin do‘sti edi. Ikkala yozuvchi ham Oksford universitetining ingliz bo‘limida ishlagan va “Inklings” nomi bilan tanilgan norasmiy Oksford adabiy to‘garagining faol a’zolari bo‘lgan. Aynan ushbu guruh yig‘ilishlarida Lyuisning yangi yozilgan asarlari o‘qilib, muhokama qilingan.

“Narniya yilnomalari” — Klayv Styeplz Lyuis tomonidan yozilgan yettita kitobdan iborat fentezi romanlar turkumi. Ulardagi voqealar turli g‘ayrioddiy jonzotlar yashaydigan, hayvonlar gapira oladigan Narniya degan sehrli o‘lkada sodir bo‘lib, boshqa olamdan kelib qolgan bolalarning sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Narniya yilnomalari yosh kitobxonlar uchun tushunarli tarzda ifoda etilgan nasroniylik g‘oyalariga juda ko‘p ishoralarni o‘z ichiga oladi. Xristian mavzulariga qo‘shimcha ravishda, Lyuis yunon va rim mifologiyasi va an’anaviy ingliz va irland ertaklariga murojaat qilib, ulardagi qahramonlar, obrazlar hamda motivlardan unumli foydalanadi. “Narniya yilnomalari” syujeti hayotiy va xayoliy voqealarga asoslangan bo‘lib, asarning birinchi qismi sanalmish “Arslon, jodugar va shkaf” Lyuisning cho‘qintirgan qizi Lyusi Barfildga bag‘ishlab yozilgan hamda asar bosh qahramoniga ham shu qizning nomi berilgan. Asardagi ba’zi voqealar Lyuisni yoshligidan beri ta’qib qilib kelgan, masalan ushbu birinchi kitobdagi qorda sayr qilib yurgan faun obrazi muallif 16 yoshligida hayoliga kelgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida Kerolning uyiga Londondan bir guruh bolalar vaqtincha yashash uchun keladi hamda yozuvchi ular bilan vaqt o‘tkazarkan, ichida aynan bolalar uchun mo‘ljallangan kitob yozish ishtiyoqi alanga oladi.

Adabiy tanqidchi M.Beyn ta’kidlashicha, *“Narniya yilnomalari” dunyoning yaratilishidan tortib apokalipsgacha koinotning ilohiy tuhfasi sanaladi*”[2]. Narniya yilnomalari shunchaki ertak emas, bu butun boshli olam. Narniya mamlakatining har bir detali shunchalik mahorat bilan ishlanganki, uning o‘ylab topilganligiga ishonish qiyin. Undagi jamiyat a’zolarining bir-biri bilan munosabati, mamlakatlar va ularning siyosiy institutlari, boshqaruvi mantiqan bog‘langan [3, 8]. “School Library Journal” jurnali kitobxonlar orasida XX asr ruhiyatini aks etgan 20ta kitob deb nomlangan anonim so‘rovnoma o‘tkazganida, ushbu ro‘yxatga “Narniya yilnomalari”ning “Arslon, jodugar va shkaf” kitobini kiritishgan [4, 121].

The Guardian jurnalining 2005-yildagi maqolasiga ko‘ra Garri Potter seriyalari kitobxonlar e’tiboriga havola etilishidan oldin “Narniya yilnomalari” eng ko‘p o‘qilgan kitob hisoblanib, 85 million nusxada sotilgan [5].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Manbalarni tahlil qilish davomida bolalar fentezi janrining quyidagi xususiyatlari aniqlandi [6, 309-310]:

- Qahramonlar bolalar;
- Bolalarga mos mavzular(birinchi muhabbat, o‘smirlik muammolari va b.sh.);
- Sarguzashtlar zanjiri, ko‘proq dialoglar va harakatlar;
- Tarbiyaviy ta’sir;
- Asarlar bolalarga tushunarli, sodda tilda yoziladi.

“Narniya yilnomalari” kitobining mantiqan birinchi qismi sanalmish “Afsungarning jiyani” da asarning bosh qahramonlari Polli va Digori deb nomlangan 10-11 yoshli bolalar hisoblanadi. Asarda Digorining tog‘asi hamda xolasi, onasi kabi yoshi katta qahramonlar ham mavjud bo‘lsa-da, voqealar ushbu ikki protagonist atrofida sodir bo‘ladi. Asarning keyingi qismlaridagi bosh qahramonlar esa urush tufayli o‘z uyidan qarindoshlariniki vaqtincha yashash uchun jo‘natib yuborilgan aka-ukalar Piter, Syuzan, Edmund hamda Lyusidir. *Once there were four children whose names were Peter, Susan, Edmund, and Lucy, and it has been told in another book called The Lion, the Witch and the Wardrobe how they had a remarkable adventure* [7, 3]. “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib borish” qismida aka-ukalarning qarindoshi bo‘lgan Yustes degan bola asarga qo‘shiladi. Kitobning keyingi qismlarida voyaga yetgan Piter va Syuzanlar asar voqealaridan chetlatiladi, shuning o‘zi asarning aynan bolalar uchun yaratilgani, shuning uchun ham ulg‘aygan qahramonlarga asarda ortiq joy yo‘qligini ko‘rsatadi. *-“There were things he wanted to say to Su and me because we're not coming back to Narnia."-"Never?" cried Edmund and Lucy in dismay.*

-"Oh, you two are," answered Peter. "At least, from what he said, I'm pretty sure he means you to get back some day. But not Su and me. He says we're getting too old." [8, 165] Ushbu parchadan asarning tarbiya romanidan o‘zlashtirib olgan yana bir xususiyati seziladi, u ham bo‘lsa shaxs rivojlanishi, ya’ni kitobning dastlabki qismida kichkina yoshda bo‘lgan qahramonlar, keyingi qismlarda ulg‘ayib, o‘smirlik yoshiga yetadi.

Janrning navbatdagi belgisi hisoblangan asar mavzusi bolalar yoshiga va psixologiyasiga mos bo‘lishi lozimligi ham “Narniya yilnomalari” kitob qismlarida o‘z dalilini topgan. “Afsungarning jiyani” qismida bir-biriga begona bo‘lgan ikki bola, Polli hamda Digorining do‘stlashishi, ularning bir-biri bilan suhbatlari, ota-onalari bilan munosabatlari juda ko‘p tasvirlangan. Pollining gapiga kirmasdan qo‘ng‘iroqni chalgan Digoridan Polli ancha vaqt arazlab yurishi, bolalarning qiziquvchanligi sababli turli havzalarga sakrab ko‘rish istagi, Polli kun bo‘yi yo‘qolib qolganligi sababli ota-onasi tomonidan uyda qamab qo‘yish orqali jazolanishi shular jumlasidandir. Asarning “Arslon, jodugar va sehrli shkaf” qismida aka-ukalarning o‘zaro munosabatlari, oilaviy muammolari aks etsa, “Shahzoda Kaspiy” qismida esa birinchi muhabbat, o‘smirlik mavzulari ochib beriladi. “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib yurish” nomli 4-kitobda Lyusi misolida kichkina qizlarning opalariga taqlid qilishlari go‘zallikka, ulg‘ayishga bo‘lgan intilishlari misolida beriladi.

Keyingi xususiyatga ko‘z tashlaydigan bo‘lsak, fentezi asarlarining syujet zanjiri dialoglar ketma-ketligi, sarguzashtlarning ko‘pligi bilan xarakterlanadi. Kitobning har bir qismida qahramonlar oldiga turli xil kvestlar qo‘yiladi, masalan, “Afsungarning jiyani” qismida Endryu amaki va jodugarga qarshi chiqib, sehrli olma daraxtini ekish vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, “Arslon, jodugar va sehrli shkaf” kitobida yovuz jodugar bilan kurashib, uni mag‘lub qilish va Narniya mo‘jizaviy mamlakatiga sakinat olib kelish kerak bo‘ladi. “Shahzoda Kaspiy” nomli 3-kitobda Narniya mamlakati va uning xalqi hisoblanmish sehrli jonzotlarga xavf solgan qirol Miraz hamda uning armiyasiga qarshi kurashib, Kaspiyni Narniya qiroli qilib tayinlash asosiy maqsad hisoblanadi. Yilnomalarning “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib borish” qismida Edmund, Lyusi, Yustas va shahzoda Kaspiy oldiga 7 ta sehrli qilichni topib, yovuz qaroqchilar bilan kurashish vazifasi qo‘yiladi. Asar qahramonlarining ichki kechinmalari, o‘y-xayollarini kitobxonga yetkazish uchun muallif uzun va murakkab tasvirlashlardan qochib, sodda dialoglardan foydalanadi. *-"I shall go home by the tunnel," said Polly rather coldly. "That'll be the quickest way. And if you want me to come back, hadn't you better say you're sorry?"-"Sorry?" exclaimed Digory. "Well now, if that isn't just like a girl! What have I done?"* [9, 63] Barchamiz bilamizki bolalar katta odamlarga o‘xshab “ichimdagini top” deb gina saqlab, arazlab yurmaydi, balki nima o‘ylasa shuni ochiq-oydin aytadi. Shuning uchun ham Lyuis asarini bolalar tilidan, bolalardek o‘ylab yozadi. “Narniya yilnomalari” “bolalar tili”da yozilgan bo‘lib, undagi jumlalar sodda, qisqa va lo‘nda. “*The Queen took from somewhere among her wrappings a very small bottle which looked as if it were made of copper. Then, holding out her arm, she let one drop fall from it on the snow beside the sledge. Edmund saw the drop for a second in mid-air, shining like a diamond*.”[7, 38] Ushbu misolda ko‘rishimiz mumkinki, gaplar struktura jihatidan qisqa va sodda, so‘zlar murakkab emas, fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda berilgan.

Fentezi janrining yana bir vazifasi – ertaklarida bo‘lgani kabi didaktik, ya’ni tarbiyaviy vazifadir. “Narniya yilnomalari”ning barcha qismlarida Aslan tomonidan bolalarga pand-nasihatlar beriladi. Bundan tashqari, asar davomida bolalar orasidagi o‘zaro munosabatlar, ularning harakatlaridan o‘zlariga xulosa chiqarishlariga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib borish” kitobida Lyusi opasi Syuzanga taqlid qilib, o‘zining tashqi ko‘rinishidan qoniqmaydi va natijada o‘zining opasiga aylanib qolganini sezib qoladi. Shunda Aslan unga har kim o‘zining tanasi va ruhi bilan tug‘ilishini va har bir inson bu ilohiy tuhfa ekanligini aytganida, Lyusi o‘zining gumonlari va fikrlaridan uyalib, o‘zi uchun xulosa chiqaradi.

Fentezi asarlarining asosi sanalmish folklor ertaklaridan kirib kelgan yana bir xususiyat—yaxshilik va yovuzlik orasidagi tinimsiz kurash va unda albatta yaxshilikning g‘alaba qozonishi. Yilnomalarning barcha qismlarida bosh qahramonlar yovuzlik timsollari (jodugar, yovuz qirol, qaroqchilar, soxta arslon va boshqalar) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kurashga chiqishadi va g‘olib bo‘lishadi. “*The battle was all over a few minutes after their arrival. Most of the enemy had been killed in the first charge of Aslan and his companions; and when those who were still living saw that the Witch was dead they either gave themselves up or took to flight”*.[7, *165]*

Deyarli barcha bolalar kitoblariga ahamiyat beradigan bo‘lsak, ularning hajmi bolalarni charchatib qo‘ymaydigan, tezroq tugatish imkonini beradigan hajmda yoziladi. “Narniya yilnomalari” qismlari ham ushbu talablarga javob berib, kitob qismlari kichik hajmda yozilgan. Masalan, “Afsungarning jiyani” 183 bet, “Arslon, jodugar va sehrli shkaf” 154 bet, “Shahzoda Kaspiy” qismi esa 195 betdan iborat[71].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, K.Lyuisning “Narniya yilnomalari” 7 qismdan iborat bolalar fentezi janrining eng mashhur na’munalaridan biri bo‘lib, kitob chop etilganiga yarim asrdan oshgan bo‘lsa-da, haligacha dunyo bolalari tomonidan sevib o‘qiladi. Ushbu epopeya bolalar tushunadigan sodda tilda, murakkab bo‘lmagan gaplar strukturasi bilan yozilganiligi; uning asosiy qahramonlarini o‘smirlik yoshigacha bo‘lgan bolalar tashkil etganligi; asar syujetini tashkil etuvchi voqealar sarguzashtlarga va dialoglarga boyligi; asar mavzusi bolalar yoshi va psixologiyasiga mos bo‘lganligi; asar g‘oyasi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli ham uni bolalar adabiyotining na’munasi deb ayta olamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Martindale W, Root J. The Qoutable Lewis. – Illinois: Tyndale House Publishers, Inc. Wheaton, 1990. – p.245.
2. Bane M. Myth Made Truth: The Origins of the Chronicles of Narnia / M. Bane // Into the Wardrobe a C. S. Lewis web site : сайт. -URL: http://cslewis.drzeus.net/papers/originsofnarnia.html (дата обращения: 27.09.2022).
3. Fry M. C.S.Lewis’ The Chronicles of Narnia. A Critical Analysis. – Montreal, McGill University, 1975. – p.8.
4. 100 Books that Shaped the Century. – Magazine: School Library Journal, 2000. – Vol 46, Issue 1. – p.121.
5. https://www.theguardian.com/books/2005/dec/05/cslewis.booksforchildrenandteenagers; (access date14.09.2022)
6. Саидова Н.А. Фэнтези адабиётининг жанрий хусусиятлари. Methods of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and solutions proceedings of International scientific-practical conference. – б.309-310. SBN 978-9943-8229-5-5
7. Lewis C.S. The Chronicles of Narnia: The Lion, the Witch and the Wardrobe”. – HarperCollins e-books, 2008. – 156 p.
8. Lewis C.S. The Chronicles of Narnia: Prince Caspian. – HarperCollins e-books, 2002. – 256 p.
9. Lewis C.S. The Magician’s Nephew. – HarperCollins e-books, 2008. – 208 p.

[71] Birinchi nashr